

UO'K: 378.014.3

**OLIV TA'LIMIDA XIZMATLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING
ASOSIY TAMOYILLARI**

Olimova Nodira Xamrakulovna

i.f.n., professor, Farg'ona davlat universiteti

Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi

*magistrant, «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini boshqarishning asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlar o'rganilgan. Davlat ta'lim siyosati doirasida normativ-huquqiy baza, moliyalashtirish mexanizmlari, ichki va tashqi sifat nazorati tizimlari, kredit-modul tizimini joriy etish hamda xalqaro standartlar asosida ta'lim xizmatlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvning korporativ modeli, universitet-avtonomiya tamoyillari, talabalar manfaatdorligini oshirish, innovatsion loyihalar va ilmiy salohiyatni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimida boshqaruvni yanada takomillashtirish hamda ta'lim xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *davlat oliy ta'lim muassasalari; ta'lim xizmatlari; boshqaruv tizimi; ta'lim siyosati; ta'lim sifatini baholash; raqamlashtirish; kredit-modul tizimi; ta'lim boshqaruvi; innovatsion rivojlanish; universitet avtonomiyasi.*

Annotation: *This scientific article analyzes the main aspects of managing educational services in state higher education institutions of the Republic of Uzbekistan. The study examines priority areas such as improving management efficiency in the higher education system, training competitive human capital, modernization and digitalization of the educational process. Within the framework of state education policy, special attention is paid to the regulatory and legal framework, financing mechanisms, internal and external quality assurance systems, the implementation of the credit-modular system, and the improvement of educational services based on international standards. In addition, the article highlights the corporate governance model in higher education institutions, the principles of university autonomy, increasing student engagement, and practical mechanisms for developing innovative projects and scientific potential. The research results contribute to the development of scientifically grounded recommendations for further improving management and enhancing the quality of educational services in the higher education system of Uzbekistan.*

Keywords: *state higher education institutions; educational services; management system; education policy; quality assessment of education; digitalization; credit-modular system; education management; innovative development; university autonomy.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются основные аспекты управления образовательными услугами в государственных высших учебных заведениях Республики Узбекистан. В исследовании рассматриваются приоритетные направления, такие как повышение эффективности управления в системе высшего образования, подготовка конкурентоспособных кадров, модернизация и цифровизация образовательного процесса. В рамках государственной образовательной политики особое внимание уделяется нормативно-правовой базе, механизмам финансирования, системам внутреннего и внешнего контроля качества, внедрению кредитно-модульной системы, а также совершенствованию образовательных услуг на основе международных стандартов. Кроме того, освещаются корпоративная модель управления в высших учебных заведениях, принципы университетской автономии, повышение заинтересованности студентов, а также практические механизмы развития инновационных проектов и научного потенциала. Результаты исследования направлены на разработку научно обоснованных предложений по дальнейшему совершенствованию управления и повышению качества образовательных услуг в системе высшего образования Узбекистана.*

Ключевые слова: *государственные высшие учебные заведения; образовательные услуги; система управления; образовательная политика; оценка качества образования; цифровизация; кредитно-модульная система; управление образованием; инновационное развитие; университетская автономия.*

KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar sharoitida davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini samarali boshqarish tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning global bilim iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash talablari oliy ta'lim tizimini chuqur modernizatsiya qilishni talab etmoqda. Davlat oliy ta'lim muassasalari bugungi kunda nafaqat ta'lim beruvchi tashkilot, balki ilmiy-innovatsion markaz, iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun intellektual resurs yetkazib beruvchi strategik institut sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois ta'lim xizmatlarini boshqarish jarayonida tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, universitet avtonomiyasini bosqichma-bosqich kengaytirish, sifat kafolatlari tizimini yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda samarali boshqaruv modellarini shakllantirish

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Davlat oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi ta'lim sifatini oshirish, iqtisodiyotni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash va milliy innovatsion tizimning raqobatbardoshligini mustahkamlash masalalari mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Metodlar va metodologiya. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etish va boshqarish mamlakatning inson kapitali sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim xizmatlari tizimi oliy ta'lim muassasalarining strategik maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi murakkab boshqaruv obyekti bo'lib, u ta'lim jarayoni, ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion rivojlanish bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etishda sifat, samaradorlik, shaffoflik va jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchanlik asosiy tamoyillar sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim xizmatlarini boshqarish jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ta'lim mazmunini zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayon davlat ta'lim siyosati, normativ-huquqiy asoslar va strategik dasturlar bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonunchilik hujjatlari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarini tashkil etish va boshqarishning huquqiy asosini belgilab beradi hamda ularning institutsional mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etish va boshqarishni o'rganishda kompleks ilmiy metodlar qo'llaniladi. Xususan, analitik metod orqali ta'lim xizmatlarining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv samaradorligi tahlil qilinadi, statistik metodlar yordamida ta'lim jarayoni natijadorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar baholanadi. Solishtirma tahlil va indekslash usullari turli oliy ta'lim muassasalarida xizmatlar sifati darajasini taqqoslash imkonini bersa, ekspert baholash metodi sohadagi mutaxassislar fikrlari asosida mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosini sistemali va integratsion yondashuv tashkil etadi. Bu yondashuv oliy ta'lim xizmatlarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish, uning barcha tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, interdissiplinar yondashuv ta'lim iqtisodiyoti, boshqaruv nazariyasi va ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim xizmatlarini boshqarishning zamonaviy modellarini ishlab chiqishga asos yaratadi.

Adabiyotlar sharhi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim xizmatlarini boshqarish masalalari milliy va xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Milliy manbalarda ta'lim sifatini oshirish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional rivojlanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, xalqaro

tashkilotlar (OECD, UNESCO, World Bank) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim xizmatlarining samaradorligini baholash, universitetlar avtonomiyasi va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv masalalari ustuvor yo'nalish sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu ilmiy manbalar oliy ta'lim xizmatlarini tashkil etish va boshqarishning nazariy hamda amaliy asoslarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Oliy ta'limda xizmatlarni tashkil etish va boshqarishning asosiy tamoyillari sifatga yo'naltirilgan, samarali va shaffof boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular davlat siyosati, ilmiy metodlar va xalqaro tajriba uyg'unligida amalga oshirilishi lozim. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Jahon iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi va mamlakatlar aholisi turmush farovonligining yuksalishi avvalo ta'lim sohasining taraqqiy etganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki zamonaviy global iqtisodiyotning asosiy resursi tabiiy boyliklar emas, balki yuqori malakali inson kapitali, innovatsion kompetensiyalar va intellektual salohiyat hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy barqarorlik, texnologik yangilanish, yuqori mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlik ta'lim tizimining sifati va samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim xizmatlarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish va ularni global standartlarga moslashtirish bugungi kunda nafaqat pedagogik yoki ijtimoiy ehtiyoj, balki iqtisodiy zaruratga ham aylandi. Xususan, O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari jarayonida inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion muhitni shakllantirish va ilm-fanni tijoratlashtirish masalalari davlatning ustuvor strategik yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Bugungi kunda global miqyosda ta'lim sektori eng yirik investitsiya talab qiluvchi sohalardan biri bo'lib, dunyo bo'yicha ushbu yo'nalishga yiliga qariyb 1 trillion AQSh dollari sarflanmoqda. Xalqaro xizmatlar bozori tarkibida ta'lim xizmatlarining ulushi ham sezilarli bo'lib, uning yillik hajmi 100 milliard dollardan ortiqni tashkil etadi. Jahon ta'lim bozorida iqtisodiy salohiyati va eksport imkoniyatlari yuqori bo'lgan davlatlar yetakchilik qilmoqda. Xususan, ta'lim xizmatlari eksporti bo'yicha AQSh (20%), Buyuk Britaniya (10%), Kanada (9%), Xitoy Xalq Respublikasi (9%), Avstraliya (8%), Fransiya (6%) va Germaniya (5%) kabi davlatlar xalqaro miqyosda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Ushbu mamlakatlar rivojlangan ilmiy-intelektual infratuzilma, innovatsion ta'lim texnologiyalari, malakali professor-o'qituvchilar tarkibi va global talabga mos o'quv dasturlari orqali ta'lim xizmatlarini strategik eksport mahsulotiga aylantirgan. Global raqobatning kuchayib borishi ta'lim sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada oshirib, ushbu xizmat turini yuqori daromadli iqtisodiy faoliyat ko'rinishiga aylantirmoqda. [4]. "Bilinga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonida xizmatlar sektorining ulushi keskin oshishi, ayrim prognozlariga ko'ra, jami iqtisodiy faoliyatning 85 foizigacha yetishi kuzatiladi.

Bunday iqtisodiy modelda mehnat bozori tuzilmasi ham tubdan o'zgarib, yuqori malakali va oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talab 90 foizdan ortishi kutiladi. AQSh tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlariga ko'ra, oliy ma'lumotga ega shaxslarning mehnat unumdorligi mazkur malakaga ega bo'lmagan xodimlarga nisbatan bir necha barobar, xususan 5 baravar yuqori bo'lishi aniqlangan. Bu esa inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylanayotganini ko'rsatadi.

Mazkur holat rivojlangan davlatlarda ta'lim va malaka oshirish tizimining strategik ustuvor yo'nalish sifatida shakllanishiga, innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan kreativ, yuqori malakali mutaxassislar qatlamini kengaytirishga xizmat qilmoqda." [6]. Ushbu ilmiy natijalar shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda davlat oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ta'lim xizmatlarini samarali tashkil etish hamda ularning tijorat faoliyatini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Chunki zamonaviy iqtisodiyotda OTMlar nafaqat kadrlar tayyorlovchi tizim, balki innovatsion g'oyalarni yaratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, tadbirkorlik va texnologik rivojlanishning muhim markazi sifatida faoliyat yuritadi. Shunday ekan, OTMlarda boshqaruv samaradorligini oshirish, xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish hamda bozor tamoyillariga asoslangan tijoriy mexanizmlarni shakllantirish milliy iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi strategik omillar qatoriga kiradi.

Davlat oliy ta'lim muassasalarining tijorat faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari respublikamiz iqtisodchi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur o'rganilgan.

Xususan, J.Stok va D.Lambert tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlarga ko'ra, xizmatlar bozorida talabni tizimli o'rganish ta'lim xizmatlarining zarur hajmi va sifat darajasini belgilashga imkon beradi, logistika esa ushbu xizmatlarni yetkazib berishda optimal xarajatlarni shakllantirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda kapitalning iqtisodiy jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu ilmiy qarashlar shuni anglatadiki, OTMlarning tijorat faoliyatini boshqarish jarayonida bozor talablarini chuqur tahlil qilish, xizmat ko'rsatish zanjirini samarali yo'lga qo'yish va logistika tizimini optimallashtirish ularning daromadlilikini oshirish va barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning ta'lim olish ehtiyojlari universitetlar tomonidan ta'lim xizmatlarini ko'rsatish orqali qondiriladi [5]. M.A.Lukashenko «Ta'lim xizmatlari bozoridagi Oliy o'quv yurti: boshqaruvning dolzarb muammolari» monografiyasida ta'lim xizmatining quyidagi ta'rifini beradi: «ta'lim xizmati iqtisodiy kategoriya sifatida uni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste'mol qilish jarayonlarida odamlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi».

Amaldagi qonunchilik asosida davlat ta'lim muassasalariga o'z ustavida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida davlat mulkidan tezkor boshqaruv huquqi berilgan bo'lib, ular moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ham mustaqil ravishda yuritish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ta'lim tizimida bozor munosabatlari shakllanayotgan dastlabki bosqichda byudjet mablag'larining doimiy yetishmovchiligi sharoitida davlat ta'lim muassasalari pullik ta'lim xizmatlarini joriy etishga va byudjetdan tashqari daromad manbalarini shakllantirishga kirishdilar. [5].

Taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra [2], 2014-yildan 2024-yilgacha pullik asosda o'qiyotgan talabalar soni 58,7 baravar ko'paygan, shu davrda byudjet talabalar soni atigi 1,99 baravar ko'paygan.

Iqtisodiy mustaqillikning kuchayishi va davlat universitetlarining byudjet mablag'laridan tashqari manbalarni jalb qilish imkoniyatining oshishi bilan bir vaqtda nodavlat ta'lim muassasalari shakllanishi jarayoni ham boshlangan. Bu jarayon ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish hamda ta'lim sohasida tadbirkorlik yondashuvlarini tatbiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, sanoatni monopoliyadan ozod qilish va raqobat muhitini rivojlantirish sharoitida nodavlat universitetlarning paydo bo'lishi ularning tezkor rivojlanishini rag'batlantiruvchi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. [3]. Hozirgi vaqtda mamlakatda nodavlat ta'lim sektorining rivojlanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda, bu esa uning ta'lim xizmatlari bozoridagi o'z o'rnini mustahkamlashini va iste'molchilar hamda jamiyat tomonidan unga bo'lgan barqaror talabni yaqqol namoyon etishini ko'rsatadi. [2]

Ta'lim sohasida bozor munosabatlarining shakllanishi universitetlar o'rtasidagi raqobatning sezilarli darajada rivojlanishiga olib keldi. Bu jarayon esa oliy ta'lim muassasalarini o'z pozitsiyalarini mustahkamlash, ta'lim sifatini oshirish va taqdim etilayotgan xizmatlar spektrini kengaytirishga faol undadi. Rivojlanayotgan ta'lim xizmatlari bozorida ishtirok etuvchi oliy o'quv yurtlari hozirgi kunda o'z faoliyatini iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'lab, ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning samarali mexanizmlarini belgilaydilar. Shu bilan birga, ta'lim xizmatlarini taqdim etish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular xizmatlarning sifat va samaradorligini oldindan belgilaydigan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar ta'lim muassasalarining strategik rejalashtirish va boshqaruv faoliyatida markaziy o'rin egallaydi, shuningdek, bozor sharoitlarida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bozor sharoitida oliy ta'lim muassasalarining faoliyat yuritish sharoitlarini inobatga olgan holda, ularning quyidagi asosiy xususiyatlari ajralib turadi:

- Nomoddiylik xususiyati. An'anaviy ta'lim tizimida ta'lim xizmatlari faqat iste'mol qilinishi jarayonida o'zini namoyon qiladi, ya'ni iste'molchi xizmatning sifatini oldindan baholay olmaydi. Shu sababli, ta'lim xizmatini xarid qiluvchi shaxs uni oldindan ko'rmagan holda, ishonch asosida sotib olishga majbur bo'ladi;

- Manbadan ajralmaslik va sifatning nomuvofiqligi. Ta'lim xizmatlari to'liq standartlashtirilishi mumkin emas va ularni faqat taqdim etish jarayonida nazorat qilish mumkin. Ta'lim jarayoni asosan ikki tomonlama aloqa shaklida kechadi, bunda ta'lim xizmatining ishlab chiqaruvchisi va iste'molchisi o'rtasida darhol fikr-mulohazalar almashinuvi yuz beradi, bu esa ularning funksional o'zaro ta'siri uchun asos yaratadi.

- Iste'mol natijalarining sub'ektivligi va noaniqligi. Ta'lim jarayonida o'quvchining faolligi natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim xizmatining samaradorligi iste'molchi tomonidan sarflangan shaxsiy mehnat, qabul qilish va qo'llash qobiliyati hamda bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tadbiq etish darajasiga bog'liq.

- Natijalar namoyon bo'lishining kechikishi. Ta'lim jarayonida egallangan bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar faqat ularni tegishli faoliyat sohasida qo'llash natijasida o'z samarasini beradi. Shu bilan birga, ushbu natijalar o'quv jarayoni tugagandan so'ng va ko'pincha qo'shimcha vaqt o'tganidan keyin aniq namoyon bo'ladi.

- Yangi axborot texnologiyalarining ta'siri. Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish darajasi ta'lim xizmatlarining mohiyatini va ularni taqdim etish prinsiplari o'zgarishiga olib keladi. Bu esa o'quv jarayonida turli sub'ektlarning ishtirok darajasiga va ularning o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning xususiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim xizmatlarini taqdim etish jarayonida asosiy qiymat iste'molchi, ya'ni talaba tomonidan yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasasi o'ziga xos ishlab chiqaruvchi korxonalar sifatida qaralishi mumkin, ta'lim xizmatlarini taqdim etish jarayoni esa murakkab ishlab chiqarish tizimi sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon natijasida talaba o'qish davomida egallagan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlab, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniga ega bo'ladi va shu orqali sertifikatlangan, malakali mutaxassisga aylanishi ta'minlanadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy va ijtimoiy rolini, shuningdek, ta'lim xizmatlarining bozor qiymatini aniqlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosalar. Shunday qilib, ta'lim xizmatlari bozorida munosib pozitsiyani egallash va uni barqaror saqlab qolish uchun universitetlar eng kam xarajat bilan yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etishga intilishlari zarur. Buning ma'nosi shundaki, oliy ta'lim muassasalari mavjud resurslardan maksimal samaradorlik bilan foydalanib, barcha mavjud strategik va operatsion imkoniyatlarni to'liq tatbiq etishlari kerak. Ushbu maqsadlarga erishish jarayonida universitet rahbariyati o'z qarorlarini ishonchli va o'z vaqtida, asosli ma'lumotlarga tayangan holda qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini chuqur o'rganish va ularning rahbariyatining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash natijasida universitetlar raqobatbardosh bozor sharoitida samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan strategik va boshqaruv mexanizmlari aniqlandi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) har bir kafedra - bu asosiy ishlab chiqarish tarkibiy bo'linmasi bo'lib, uning faoliyatining umumiy natijalariga qo'shgan hissasi alohida hisobga olinadi. Kafedralarning ushbu hissasini baholash esa muassasaning faoliyat natijalarini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va takomillashtirishga, shuningdek, samaradorligi past kafedralarni yuqori samaradorlikka ega bo'lgan kafedralar bilan birlashtirish bo'yicha asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining resurslarini samarali taqsimlash va umumiy ta'lim sifatini oshirish uchun strategik ahamiyatga ega.

2. Keyingi o'quv yili uchun kafedralarning xarajatlar smetasini tuzish va hisoblangan ko'rsatkichlarni boshqaruv hisobi doirasida mavjud real ma'lumotlar bilan solishtirish orqali ularning xarajatlarini nazorat qilish amalga oshiriladi. Kafedralar xarajatlarini samarali nazorat qilish xodimlarni resurslardan oqilona foydalanishga rag'batlantiradi va shu orqali universitet faoliyatining umumiy samaradorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv, shuningdek, moliyaviy intizomni mustahkamlash va ta'lim muassasasining strategik maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Mutaxassisliklar va o'qitish shakllari nuqtai nazaridan ta'lim xizmatlarini taqdim etishning to'liq va qisqartirilgan qiymatini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash universitet rahbariyatiga mavjud mutaxassisliklarning eng samarali va foydali yo'nalishlarini belgilash, talabalar sonini optimallashtirish, yangi mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim jarayonini boshlashning maqsadga muvofiqligini baholash va belgilangan to'lov miqdorining yetarliligini tekshirish imkonini beradi. Shu tariqa, bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining strategik rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va ta'lim sifatini oshirishdagi boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

4. Mavjud ishlab chiqarish quvvatlari doirasida haqiqiy va mumkin bo'lgan o'qish to'lovlari hamda talabalar sonini mutaxassisliklar va o'qitish shakllari kesimida zararsiz nuqtada aniqlash muhimdir. Bunday hisob-kitoblar universitet rahbariyatiga ta'lim xizmatlarini taqdim etish xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan minimal talabalar sonini belgilash, shuningdek, mutaxassisliklar bo'yicha to'lov miqdori va talabalar sonining turli kombinatsiyalari orqali universitet faoliyatining samaradorligini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv strategik rejalashtirish, resurslarni optimal taqsimlash va ta'lim sifatini oshirish uchun muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni hisobga olish va ta'lim xizmatlari narxini belgilashning amaldagi tartibini o'rganish shuni ko'rsatdiki, mavjud buxgalteriya ma'lumotlari universitet faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini yetarlicha aks ettirmaydi va shu sababli boshqaruvning ortib borayotgan talablariga to'liq javob bera olmaydi. Amalda qo'llaniladigan hisoblash usullari ma'lum bir mutaxassislik va o'qitish shakli bo'yicha ta'lim xizmatining haqiqiy narxini aniqlash imkoniyatini bermaydi,

chunki ular asosan umumiy xarajatlarni hisobga olishga qaratilgan va universitetlarda ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning o'rtacha qiymatini belgilash bilan cheklanadi.

Raqobat muhitida va universitetlarning iqtisodiy mustaqilligi sharoitida bunday yondashuv yetarli emas. Ta'lim muassasalarini samarali boshqarish, xarajatlarni aniq nazorat qilish va ta'lim xizmatlarining narxini adolatli belgilash uchun buxgalteriya hisoboti asosida xarajatlar to'g'risida batafsil, tizimli va shaffof ma'lumotlarni shakllantirish zarurati sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, raqobatbardosh universitet sharoitida ta'lim xizmatlari bozorining o'zgaruvchan talablariga moslashish va resurslardan maksimal samaradorlik bilan foydalanish uchun boshqaruv hisobi tizimi (management accounting) va strategik moliyaviy rejalashtirish vositalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv universitetlarga nafaqat xarajatlarni optimallashtirish, balki ta'lim xizmatlarining sifatini oshirish, talaba va jamiyatga taqdim etilayotgan xizmatlarning qiymatini aniqlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim xizmatlari narxini rejalashtirish, hisobga olish va hisoblash bo'yicha aniq ko'rsatmalar mavjud emas, ularga universitetlar xarajatlarni hisoblashda asos sifatida tayanishi qiyin. Shu sababli, ta'lim xizmatlari narxini belgilashning amaldagi amaliyoti universitet faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga va ta'lim xizmatlari bozorida sharoitlarga moslashgan holda amalga oshiriladi.

Mutaxassisliklar turlari va o'qitish shakllari bo'yicha ta'lim xizmatlarining tannarxini aniqlash esa samarali assortiment siyosatini shakllantirish, har bir mutaxassislik bo'yicha belgilangan o'quv to'lovlari miqdorining yetarliligini baholash va yangi mutaxassisliklar bo'yicha o'qishni boshlash to'g'risida asosli qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarining xarajatlarni hisobga olish tartibini takomillashtirish va ularning ta'lim faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mutaxassisliklar va o'qitish shakllari kesimida ta'lim xizmatlari narxini hisoblashning ilmiy asoslangan metodologiyasini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu nafaqat universitet faoliyatini samarali boshqarish, balki resurslardan optimal foydalanish va ta'lim xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, ma'lum bir mutaxassislik va ta'lim shakli bo'yicha talabalar uchun ta'lim xizmatlarini taqdim etish jarayonini o'rganish natijasida ta'lim xizmatlari ko'rsatish jarayoni uzluksiz va ketma-ket bosqichlardan tashkil topgan degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu jarayon bir yoki bir nechta o'quv kurslarini o'z ichiga oladi va bosqichlar bir-birini izchil ta'qib qiladi. Ta'lim xizmatlari bir vaqtning o'zida barcha mutaxassisliklar va o'qitish shakllari bo'yicha talabalar uchun taqdim etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim xizmatlarini bir xil yoki taxminan bir xil mahsulot sifatida seriyali yoki ommaviy ishlab chiqarish tannarxini hisoblash amaliyotida, ishlab chiqarish tsikli odatda uzluksiz yoki qisman tugallanmagan holatda bo'ladi. Shu

sababli, xarajatlarni hisobga olish va ta'lim xizmatlarining tannarxini aniqlash uchun ishlab chiqarishning texnologik usullaridan foydalanish zarur bo'ladi. Bu yondashuv oliy ta'lim muassasalarida resurslarni samarali taqsimlash, ta'lim xizmatlarining qiymatini aniqlash va moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, ma'lum bir mutaxassislik va ta'lim shakli bo'yicha talabalarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tannarxini hisoblash usuli amalga oshiriladi, va biz bu usulni "o'zgartirilgan jarayon" deb ataymiz. Ushbu nom protsessual usulga o'xshash bo'lib, xarajatlarni hisobga olish tartibining asosiy prinsiplariga bog'liq: to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar alohida jarayonlar bo'yicha, bilvosita xarajatlar esa umuman tashkilot darajasida hisobga olinadi. Farqi shundaki, sanoat korxonalarida texnologik jarayonlar va universitetlarda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ta'lim jarayonida xarajatlarni aniqlash va boshqarish usullari sanoat ishlab chiqarishidan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli, "o'zgartirilgan jarayon" usuli oliy ta'lim muassasalari uchun moslashtirilgan bo'lib, u talabalarga ta'lim xizmatlarini taqdim etishning murakkab va uzluksiz jarayonini hisobga olgan holda xarajatlarni aniqlash imkonini beradi.

Muayyan mutaxassislik va o'qitish shakli bo'yicha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish narxini aniqroq hisoblash uchun ularni o'qitish bilan bog'liq maksimal to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar ajratilgan:

- bitta talabani o'qish narxiga tegishli xarajatlar;
- bir guruh talabalarini o'qitish narxiga bog'liq xarajatlar;
- ushbu mutaxassislik va ta'lim shaklining barcha talabalarini o'qitish narxiga bog'liq xarajatlar.

Shunday qilib, biz talabaga ma'lum bir mutaxassislik va o'qitish shakli bo'yicha universitetda ta'lim olgan davrning to'liq davomiyligi uchun ta'lim xizmatlarining to'liq narxini aniqlaymiz. Hisoblashning aniqligini oshirish birinchi navbatda kurslar, mutaxassisliklar va o'qitish shakllari kesimida to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni hisobga olishni tashkil etish va bilvosita xarajatlarni iqtisodiy asoslangan mezonlar bo'yicha mutaxassisliklar orasida mutanosib taqsimlash orqali ta'minlanadi. Ikkinchidan, ma'lum bir mutaxassislik va ta'lim shakli bo'yicha talabalar uchun ta'lim xizmatlari narxini hisoblashda xarajatlar tarkibida eng katta ulushni egallaydigan xarajat turlarini alohida hisobga olishga katta e'tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv ta'lim xizmatlarining tannarxini aniqlik bilan hisoblash, resurslardan samarali foydalanish va universitetning moliyaviy boshqaruv tizimini mukammallashtirish imkonini beradi.

Mazkur model universitet rahbariyatiga kelgusi davrda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan dastlabki parametrlarni tizimga kiritish orqali iqtisodiy sharoitlarning turli variantlari asosida mutaxassisliklar va o'qitish shakllari kesimida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish xarajatlarni hisoblash imkonini beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, model nafaqat xarajatlarni prognozlash va resurslarni rejalashtirishda yordam beradi, balki universitetning moliyaviy boshqaruvi va strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Зернов В. Негосударственный сектор: анализ, прогноз развития. // Высшее образование в России 2004. №9. С. 52-56.
2. Лукашенко М. Маркетинг и PR в учебном заведении. // Высшее образование в России. 2002. №4. С.33-40.
3. Лукашенко М.А. Высшее учебное заведение на рынке образовательных услуг: актуальные проблемы управления. – М.: Маркет ДС, 2003. – 358 с.
4. Майбуров И. Финансирование высшего образования: национальные особенности // Высшее образование в России. 2004. №10. С.31-37.
5. Маркин Е.В. Финансы вузов в условиях реформирования бюджетного сектора // Бюджетные организации: экономика и учет. 2004. №11. С.12-19.
6. Крылова А.Н. Особенности образовательной деятельности высших учебных заведений и их влияние на управленческий учет затрат. / А.Н.Крылова. - Текст: непосредственный // Проблемы и перспективы экономики и управления: материалы I Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, апрель 2012 г.). - Санкт-Петербург: Реноме, 2012. - С. 133-142.
7. Преображенский Б.Г. Система подготовки менеджеров для государственной службы: концепция развития <https://www.science-education.ru/ruarticle/view?id=1126>